

SANOAT INFRATUZILMASI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING GLOBAL IQTISODIY MEZONLARI

Rasulov Jamshid Karimovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация

Ushbu maqola sanoat infratuzilmasini optimal tartibga solishning global iqtisodiy mezonlarini nazariy va qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Unda tartibga solish nazariyasining asosiy yondashuvlari umumlashtirildi, iqtisodiy samaradorlik, narx mexanizmlari, investitsion muhit, raqobat siyosati hamda institutsional sifatdan iborat besh mezonli tizim shakllantirildi. Tadqiqot xalqaro tajribalarni solishtirish orqali turli mamlakatlarda qoʻllanilgan cost-plus, price-cap va revenue-cap modellarining afzallik yoritilgan. Tahlil natijasida tartibga solish samaradorligi faqat tanlangan mexanizmga emas, balki uning institutsional barqarorligi va investitsion muhit bilan uygʻunligiga ham bogʻliqligi koʻrsatildi. Maqola amaliy siyosat va kelgusi tadqiqotlar uchun foydali xulosalar ishlab chiqildi.

Калит soʻzlar: sanoat infratuzilmasi, tartibga solish, iqtisodiy mezonlar, price-cap, revenue-cap, cost-plus, investitsion muhit, raqobat siyosati, institutsional sifat, tabiiy monopoliya.

Аннотация

В статье теоретически и сравнительно анализировались глобальные экономические критерии оптимального регулирования промышленной инфраструктуры. В ней обобщались основные подходы теории регулирования и формировалась пятикомпонентная система критериев, включавшая экономическую эффективность, ценовые механизмы, инвестиционную среду, конкурентную политику и институциональное качество. Исследование сопоставляло международный опыт и показывало преимущества и ограничения моделей cost-plus, price-cap и revenue-cap, применявшихся в разных странах. В результате анализа было установлено, что эффективность регулирования зависела не только от выбранного механизма, но и от его институциональной устойчивости, прозрачности и согласованности с инвестиционной средой. Статья предложила практические выводы, которые могли использоваться при совершенствовании регуляторной политики и в дальнейших научных исследованиях.

Ключевые слова: промышленная инфраструктура, регулирование, экономические критерии, price-cap, revenue-cap, cost-plus, инвестиционная среда, конкурентная политика, институциональное качество, естественная монополия.

Abstract

This article examined the global economic criteria of optimal regulation of industrial infrastructure from theoretical and comparative perspectives. It summarized the major approaches in regulation theory and developed a five-part system of criteria covering economic efficiency, pricing mechanisms, investment climate, competition

policy, and institutional quality. Through a comparison of international practices, the study explained the strengths and limitations of the cost-plus, price-cap, and revenue-cap models applied in different countries. The analysis showed that regulatory effectiveness depended not only on the selected mechanism but also on institutional stability, transparency, and consistency with the investment environment. The article advanced practical conclusions that could support regulatory improvement and provide a useful analytical basis for further academic research.

Keywords: industrial infrastructure, regulation, economic criteria, price-cap, revenue-cap, cost-plus, investment climate, competition policy, institutional quality, natural monopoly.

KIRISH

Sanoat infratuzilmasi milliy va global iqtisodiyotning tayanch qismi sifatida ishlab chiqarish zanjirlari samaradorligini, kapital harakatchanligini va texnologik innovatsiyalar tarqalishini bevosita belgilaydi. Transport magistrallari, energetika tarmoqlari, kommunikatsiya tizimlari va suvdan foydalanish infratuzilmasi o'z tabiiy monopoliya xususiyatlari tufayli sof bozor mexanizmlari orqali optimal holatga keltirilishi mumkin emas - bu esa davlat tartibga solishini nafaqat maqsadga muvofiq, balki muqarrar qiladi.

Tartibga solish nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, dastlab sodda narx nazorati va kirishni cheklash usullariga tayandi [2]. Biroq axborot asimmetriyasi, rag'batlantirish muammolari va tartibga soluvchilarning o'zlari uchun xos bo'lgan cheklovlar to'g'risida tushunchalarning chuqurlashuvi bilan iqtisodiy nazariya tartibga solish mexanizmlarini tubdan yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqishga majbur bo'ldi [3]. 1980-yillardan boshlab xususiylashtirish to'liqlini va tarmoqlarni liberalizatsiya qilish tendensiyasi yanada murakkab va samaradorlik jihatidan afzalroq mexanizmlarni talab qildi [13].

Bugungi kunda global miqyosda sanoat infratuzilmasini tartibga solishda katta xilma-xillik kuzatiladi. Yevropa Ittifoqining price-cap tizimlari, AQShning narx me'yorlash modellari va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tavsiya etilayotgan gibridd mexanizmlar - ularning har biri muayyan iqtisodiy va institutsional sharoitlarda maqbullik ko'rsatadi [1], [7]. Biroq yagona, qiyosiy iqtisodiy mezonlar tizimi mavjud bo'lmaganda siyosatchilar turli mamlakatlar tajribasini asosli ravishda baholash va o'z sharoitlariga moslashtirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Aynan ushbu muammo xalqaro akademik hamjamiyat e'tiborini tartibga solish mezonlarini tizimlashtirish masalasiga jalb qilmoqda. OECD Regulatory Policy Outlook [1] hisobotlari, IMF [21] tahlillari va Jahon banki [6] tadqiqotlari tartibga solishning iqtisodiy natijalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini miqdor jihatidan o'lchashga urinishlar qilmoqda. Biroq nazariy jihatdan mustahkam va amaliy qo'llanishga yaroqli mezonlar tizimi hali ham to'liq ishlab chiqilmagan.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi sanoat infratuzilmasini tartibga solishning global iqtisodiy mezonlarini nazariy jihatdan tizimlashtirish, ularni amaliy baholash metodologiyasi bilan bog'lash va xalqaro tajriba asosida tahlil qilishdir. Maqolada quyidagi vazifalar bajariladi: tartibga solish nazariyasidagi asosiy paradigmalarni tahlil

qilinadi; mezonlarning tasnifiy tizimi ishlab chiqiladi; asosiy tartibga solish modellari qiyosiy baholanadi; va tartibga solish samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tavsiyalar shakllantiriladi.

Maqola tuzilmasiga kelsak, adabiyotlar sharhi bo'limida tartibga solish nazariyasining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Metodologiya bo'limida tadqiqot yondashuvi va axborot manbalari tavsiflanadi. Tahlil va natijalar bo'limida beshta mezon tizimi kengroq bayon etiladi va asosiy tartibga solish modellari qiyoslanadi. Xulosa va tavsiyalar bo'limida asosiy xulosalar va amaliy tavsiyalar bayon etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat infratuzilmasini tartibga solish nazariyasining intellektual ildizlari tabiiy monopoliya konsepsiyasini iqtisodiy jihatdan asoslash bilan bog'liq. Berg va Tschirhart [24] klassik ta'rifiga ko'ra, tabiiy monopoliya yagona ishlab chiqaruvchi firma bir nechta raqobatchilarga nisbatan pastroq umumiy xarajat bilan mahsulot ishlab chiqara olgan taqdirda mavjud bo'ladi - bu holat qo'shimcha miqyos iqtisodiyoti (subadditivity of costs) bilan izohlanadi. Infratuzilma tarmoqlarida bu holat tarmoq effektlari, ulkan kapital qo'yilmalar zarurati va aktivlarning jug'rofiy xoslanishi (geographic specificity) bilan kuchayadi. Ushbu xususiyatlar bir tomondan bozor raqobatining samaradorligini cheklasa, ikkinchi tomondan infratuzilmaning ijtimoiy foydasi uchun uning monopsoniya yoki monopoliya holatida ham amal qilishi zarurligini ko'rsatadi.

Tartibga solish nazariyasida normativ va pozitiv yondashuvlar o'rtasidagi farq Joskow [2] tomonidan aniq belgilab qo'yilgan. Normativ tartibga solish nazariyasi tartibga soluvchi organ barcha zarur ma'lumotlarga ega bo'lgan holda maqbul siyosatni qanday shakllantirishi kerakligini ko'rsatadi. Pozitiv yondashuv esa haqiqiy tartibga solish jarayonlarini, tartibga soluvchilarning o'zlari uchun xos bo'lgan manfaat ziddiyatlarini va siyosiy iqtisod omillarining qaror qabul qilishga ta'sirini o'rganadi. Ushbu farq amaliy siyosatni loyihalashda muhim: normativ jihatdan maqbul tartibga solish mexanizmi pozitiv jihatdan amalga oshirib bo'lmaydigan bo'lishi mumkin.

Prinsipal-agent nazariyasining tartibga solishga tatbiqi sohasidagi eng muhim nazariy hissa Laffont va Tirole [3] tomonidan qo'yilgan. Ularning modeli tartibga soluvchi organ (prinsipal) bilan tarmoq kompaniyasi (agent) o'rtasidagi munosabatda axborot asimmetriyasini markaziy muammo sifatida ko'rsatdi. Kompaniya o'z xarajatlari to'g'risida xolis ma'lumot berishdan manfaatdor emas, chunki shaffof xarajatlar me'yoriy tariflarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu ma'lumot rentasi (information rent) muammosi rag'batlantiruvchi tartibga solish mexanizmlarini taqozo etadi - mexanizmlar kompaniyani samaradorlikni oshirishga undashi va axborotni oshkor qilishga moddiy manfaat bog'lashi kerak.

Rag'batlantiruvchi tartibga solish yo'nalishlari ichida price-cap mexanizmi alohida o'rin egallaydi. Sappington [15] ushbu mexanizmning asosiy afzalligini shunday ifodalaydi: firma belgilangan narx shifti doirasida xarajatlarni kamaytirish orqali qo'shimcha foyda oladi va bu rag'bat qisqa muddatli xarajat kamaytirish investitsiyalarini uyg'otadi. Biroq uzun muddatda sof price-cap tizimi kapital infratuzilmaga investitsiyalarni kamaytirish xavfini tug'dirishi mumkin - chunki

amortizatsiya xarajatlarini qoplash kafolati zaif bo'lganda firma yangilanish investitsiyalarini kechiktirishi manfaatli bo'lib qoladi [7]. Ushbu muammo revenue-cap (daromad shifti) mexanizmining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan, u kapital sarmoyalar hajmiga moslashuvchi korreksiyalar orqali ushbu kamchilikni bartaraf etadi.

Armstrong va Sappington [7] o'zlarining keng qamrovli adabiyotlar sharhida tartibga solish, raqobat va liberalizatsiya o'rtasidagi murakkab aloqalarni tahlil qildi. Ular ko'rsatdiki, tabiiy monopoliya elementlari mavjud tarmog'iga liberalizatsiya kiritilganda, infratuzilmaga uchinchi tomonlarning kirishini ta'minlovchi me'yorlar (access regulation) alohida muhimlik kasb etadi. Ushbu kirishni tartibga solish uchun belgilanayotgan narx tabiiy monopolistning o'z tarmog'idan foydalanadigan raqobatchilar bilan munosabatini belgilaydi va bozor raqobatining samarali rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida tartibga solish o'ziga xos institutsional qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Estache va Wren-Lewis [4] Laffont [10] iqtisodiy falsafasini rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitiga moslashtirdi. Ular ushbu mamlakatlar uchun xos bo'lgan to'rtta asosiy muammoni ajratib ko'rsatdi: zaif sud va huquqiy tizimlar; siyosiy o'zgaruvchanlik va tartibga solish risklari; malakali tartibga soluvchilar tanqisligi; va tarmoq firma kapitalini to'liq qoplash imkoniyatini beradigan darajada rivojlangan kapital bozorlarning yo'qligi [4]. Guasch [5] esa yirik hajmdagi empirik tadqiqotda 1990-2000 yillar oralig'ida Lotin Amerikasida berilgan 1000 dan ortiq infratuzilma konsessiyasini tahlil qildi va ularning 41% i muddatidan oldin qayta muzokaraga tortilganligini aniqladi - bu raqam infratuzilma tartibga solishidagi institutsional barqarorlik muammolarining real ko'lami haqida aniq tasavvur beradi.

Newbery [13] xususiylashtirish jarayonlari va tarmoqlarni restrukturizatsiya qilish tajribasini tahlil qildi. Uning Buyuk Britaniya elektr energetikasi va temir yo'l sohasini isloh qilish bo'yicha tadqiqoti ko'rsatdiki, xususiylashtirish o'z-o'zicha samaradorlikni oshirmaydi - islohotlarning muvaffaqiyati avvalambor tartibga solish tizimining sifatiga bog'liq. Helm [16] esa infratuzilma kapitalini moliyalashtirish muammolari nuqtai nazaridan tartibga solish barqarorligini tahlil qilib, uzoq muddatli infratuzilma sarmoyalari uchun zarur bo'lgan investor ishonchini ta'minlashda tartibga solish qoidalarining aniq va prognoz qilinadigan bo'lishi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatdi.

Williamson [9] tartibga solish munosabatlarini transaksion xarajatlar nazariyasi orqali ko'rib chiqib, infratuzilma aktivlari spetsifikligining (asset specificity) shartnomaviy munosabatlariga ta'sirini ko'rsatdi. Infratuzilmaga qilingan investitsiyalar ko'pincha qaytarib bo'lmaydigan (irreversible) va ma'lum joyga, texnologiyaga yoki kontragentga bog'liq bo'lganligi sababli, tartibga soluvchi organ yoki hukumat tomonidan opportunistik qayta muzokaralar xavfi real bo'lib qoladi. Baldwin, Cave va Lodge [25] ushbu muammoni qonunchilik va institutsional mexanizmlar orqali boshqarish usullarini tavsiflab, «yaxshi tartibga solish»ning beshta tamoyilini - mutanosiblik, javobgarlik, izchillik, shaffoflik va maqsadlilik - asoslab berdi.

Tirole [10] tartibga solish iqtisodiyotini umumiy farovonlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqib, tartibga soluvchi organlar «umumiy manfaat» (common good) prinsipiga amal qilishi kerakligi to‘g‘risidagi normativ xulosaga keldi. Bu pozitsiya, ayniqsa, infratuzilma xizmatlarida, jumladan energetika, suv ta‘minoti va transportda - bu yerda asosiy xizmatlardan foydalanish jamiyatning barcha a‘zolari uchun hayotiy ahamiyat kasb etadi - alohida qimmatga ega. OECD [1] va Yevropa Komissiyasi [12] «yaxshiroq tartibga solish» (better regulation) konsepsiyasini institutsional darajada belgilab, tartibga solish rejimlarini baholash uchun tizimli yondashuvni taklif etdi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot nazariy-analitik metodologiyaga asoslangan bo‘lib, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mezonlarga asosiy baholash usullarini birlashtiradi. Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida tartibga solish iqtisodiyoti, institutsional iqtisodiyot va sanoat tashkiloti nazariyasining tan olingan manbalariga tayandi [2], [3], [9], [24].

Mezonlar tizimini shakllantirish uchun uch bosqichli yondashuv qo‘llandi. Birinchi bosqichda Joskow [2] va Laffont va Tirole [3] tomonidan belgilangan nazariy asoslar tahlil qilindi va tartibga solishning besh asosiysini ajratib olindi: iqtisodiy samaradorlik, narx mexanizmlari, investitsion muhit, raqobat siyosati va institutsional sifat. Ikkinchi bosqichda har bir bo‘yicha bo‘yicha aniq indikatorlar aniqlandi - OECD Product Market Regulation indekslari [1], ITU tartibga solish muhiti ko‘rsatkichlari [19] va WEF raqobatbardoshlik mezonlari [17] qo‘shimcha manbalar sifatida xizmat qildi. Uchinchi bosqichda mezonlar amaliy qo‘llanish nuqtai nazaridan baholandi: ular o‘lchanganligi, axborot talablari va tartibga solish tizimining amaliyotga tatbiq etilishiga to‘sqinlik qilmasligi tekshirildi.

Qiyosiy tahlil metodologiyasi sifatida “eng yaxshi amaliyot” (best practice) yondashuvi tanlandi - ya‘ni turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan tartibga solish mexanizmlari belgilangan mezonlar bo‘yicha bir-biriga solishtirilib, ularning nisbiy afzalliklari va zaif joylari ko‘rsatildi. Tahlil uchun besh mamlakat tanlandi: Buyuk Britaniya (price-cap tizimining kashfiyotchisi [7]); AQSh (rate-of-return tartibga solishning yetakchi amaliyotchisi [8]); Germaniya (revenue-cap tizimining zamonaviy qo‘llashiga misol [12]); Janubiy Koreya (rivojlanib kelayotgan iqtisodiyotlar uchun namunali islohotchilik tajribasi [14]); va Braziliya (konsessiya mexanizmlari va qayta muzokaralar muammolarining tipik ko‘rinishi [5]). Ushbu tanlash turli institutsional rivojlanish bosqichlaridagi mamlakatlarni qamrab olib, mezonlar tizimining universalligini tekshirishga imkon beradi.

Axborot bazasi sifatida quyidagi ochiq manba materiallardan foydalanildi: OECD Regulatory Policy Outlook 2022 [1]; World Bank Private Participation in Infrastructure Database [6]; UNCTAD World Investment Report 2023 [11]; IMF World Economic Outlook 2023 [21]; ADB Asian Development Outlook 2022 [14]; va G20 Quality Infrastructure Investment Compendium [22]. Ushbu ma‘lumotlar milliy statistikani qamrab olgani, metodologik jihatdan izchilligi va xalqaro miqyosda solishtirilishi mumkinligi bilan alohida ajralib turadi.


Tadqiqotning metodologik cheklovi sifatida quyidagilarni qayd etish joiz: sanoat infratuzilmasini tartibga solish samaradorligini to‘liq miqdor jihatidan baholash keng

va izchil panel ma'lumotlarini talab qiladi, ular barcha mamlakatlar bo'yicha bir xil tuzilishda mavjud emas. Ushbu cheklov sababli tadqiqotning asosiy maqsadi miqdoriy tahlil o'rniga nazariy tizimlashtirish va mezonlarni belgilashdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mezonlar tizimining tuzilishi

Sanoat infratuzilmasini optimal tartibga solish uchun zarur iqtisodiy mezonlarni tizimlashtirish jarayonida beshta asosiy bo'yicha ajratib olindi: iqtisodiy samaradorlik, narx mexanizmlari, investitsion muhit, raqobat siyosati va institutsional sifat. 1-rasmda ushbu besh mezon kategoriyasi va ular o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar aks ettirilgan.



1-rasm. Sanoat infratuzilmasini tartibga solishning global iqtisodiy mezonlari tizimi¹.

Ushbu besh kategoriyadan har biri o'zaro bog'liq va ulardan birida erishilgan muvaffaqiyat boshqasida zaruriy shartlarni yaratadi. Masalan, institutsional sifatsiz investitsion muhitni barqarorlashtirish mumkin emas; narx mexanizmlari esa iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilganda raqobat siyosati bilan uyg'un bo'lishi kerak. Ushbu o'zaro bog'liqlik tartibga solish tizimiga tizimli yondashuvning zaruratini ko'rsatadi.

Iqtisodiy samaradorlik mezonlari

Tartibga solish samaradorligini baholashda iqtisodiy nazariya uchta asosiy samaradorlik darajasini farqlaydi [2], [8]. Allokativ samaradorlik (allocative efficiency) narxlar chekli xarajatga muvofiq kelganda erishiladi va resurslar

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

jamiyatning ustuvor ehtiyojlariga muvofiq taqsimlandi, degan ma'noni anglatadi. Biroq tabiiy monopoliya sharoitida chekli xarajat bo'yicha narx belgilash doim ham iqtisodiy jihatdan mumkin emas - yuqori doimiy xarajatlarni qoplanmay qolsa, kompaniya zararli ishlashga mahkum bo'ladi [2], [13].

Ushbu ziddiyatni nazariy jihatdan hal qilishda ikkinchi eng yaxshi narx tamoyili (second-best pricing) qo'llaniladi. Frank Ramsey nomiga qo'yilgan Ramsey narxlash tamoyili xarajatlarni qoplash va allokativ samaradorlikni moslashtirish o'rtasida muvozanatni ta'minlash uchun talabning narx elastikligi teskari proporsional ravishda xarajat ortig'ini belgilashni ko'zda tutadi [8]. Biroq bu yondashuv tartibga soluvchi organlardan katta hajmda axborot to'plash va qayta ishlashni talab qiladi - bu rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy qiyinchilikni keltirib chiqaradi [4].

Ishlab chiqarish samaradorligi (productive efficiency) kompaniyaning mavjud texnologiya imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, mahsulotni minimal xarajat bilan ishlab chiqarish qobiliyatini anglatadi. Tartibga solishda asosiy muammo shundaki, kompaniyalar o'z xarajatlarini sun'iy ravishda oshirish orqali (X-samarasizlik, ya'ni X-inefficiency) me'yoriy tariflarning ko'tarilishiga erishishi mumkin. Price-cap tartibga solish tizimi ushbu rag'batni kamaytiradi, chunki firma belgilangan narx doirasida xarajatlarini kamaytirganda qo'shimcha foyda oladi [15]. Empirik tadqiqotlar price-cap joriy etilgan tarmoqlarda xarajatlar tezroq kamayganligini ko'rsatadi - jumladan, Armstrong va Sappington [7] Buyuk Britaniya telekommunikatsiya sektorida RPI-X mexanizmi joriy etilganidan keyin tarmoq operatorlari xarajatlarining 4-6 foizga pasayganligini hujjatlaydi.

Dinamik samaradorlik (dynamic efficiency) vaqt o'tishi bilan texnologik yangilanish va innovatsiyalar orqali ishlab chiqarishdagi takomillik bilan bog'liq. Sanoat infratuzilmasida bu alohida muhimlik kasb etadi, chunki kapitalni jadal talab etuvchi tarmoqlarda investitsiyalar ko'p yillar davomida qoplanadi. Tartibga solish tizimi uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirishi lozim - bu esa tartibga solish barqarorligi va investor risklarini kamaytirish masalalari bilan bevosita bog'liq [16]. IMF [21] ma'lumotlariga ko'ra, tartibga solish sifati yuqori mamlakatlarda infratuzilmaga investitsiyalar YaIMga nisbatan o'rtacha 1.8 foiz punktga yuqori bo'lgan - bu ko'rsatkich tartibga solish mexanizmlari va kapital jalb qilish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Narx mexanizmlari va tarif siyosati

Sanoat infratuzilmasini tartibga solishda narx mexanizmi markaziy o'rin egallaydi. Jahon amaliyotida uchta asosiy tartibga solish modeli keng qo'llaniladi: cost-plus (xarajat ortiqchaligi), price-cap (narx shifti) va revenue-cap (daromad shifti) [7], [15]. Ushbu modellarni qiyosiy tahlil qilish ularning rag'batlantirish tuzilishi va turli institutsional sharoitlardagi qo'llanilishidagi farqlarni ko'rsatadi (2-jadval).

Cost-plus yoki rate-of-return tartibga solish tizimi kompaniya xarajatlarini to'liq qoplash va kapitalga belgilangan daromad normasi kafolatlanishi asosida ishlaydi. AQShda kommunal xizmatlar sohasida uzoq yillar qo'llanilgan bu tizim investorlar uchun ishonchli kafolat bersa-da, xarajatlarni kamaytirish yoki texnologik yangilanish uchun iqtisodiy rag'bat sifatida nihoyatda zaif bo'lgani uchun tanqid qilinadi [8].

Averch va Johnson [2] shu tizim doirasida kompaniyalar kapital bazasini sun'iy ravishda kengaytirish orqali me'yoriy daromadni maksimallashtirishi mumkinligini - bu hodisa "Averch-Johnson effekti" deb ataladi - isbotladi.

Price-cap tizimi 1984-yilda Buyuk Britaniyada Sir Stephen Littlechild tavsiyasi asosida telekommunikatsiya sohasi uchun joriy etildi va keyinchalik energetika va suv ta'minoti tarmoqlariga ham kengaytirildi [7]. RPI-X formulasi asosida ishlaydi: narx o'sishi chakana narxlar indeksidan (RPI) samaradorlik koeffitsiyentini (X) ayirish orqali belgilanadi. Kompaniya xarajatlarini kamaytirganda belgilangan narx doirasida foyda oladi. Tartibga solish davri odatda 5 yilni tashkil etadi va Periodic Review jarayonida yangilanadi. Armstrong va Sappington [7] ushbu modelning Yevropa va Osiyo mamlakatlarida qo'llanilishi bo'yicha keng qiyosiy tahlil o'tkazib, ularning institutsional sharoitlarga moslashtirilishi muhim bo'lganligini ko'rsatdi.

Revenue-cap tizimi price-cap tizimining zamonaviy takomillashgan shakli sifatida paydo bo'lib, ayniqsa elektr uzatish va gaz taqsimlash tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda [13]. Bu tizimda kompaniyaning jami daromadi cheklab qo'yiladi, sotish hajmidagi farqlar esa keyingi tartibga solish davrida korreksiya orqali hisobga olinadi. Germaniyada elektr va gaz tarmoqlari uchun qo'llanilayotgan «Anreizregulierung» (rag'batlantiruvchi tartibga solish) modeli ushbu yondashuvning samarali namunasi sifatida e'tirof etilgan [12]. Yevropa Komissiyasi [12] tavsiyalariga muvofiq ushbu tizim kapital investitsiyalar uchun qo'shimcha rag'batni «kapital xarajatlar sifati» mexanizmi orqali ta'minlaydi.

2-jadval.

Asosiy tartibga solish modellarining qiyosiy tahlili¹

Model	Xarajat rag'batlari	Narx aniqlik	Investitsion barqarorlik	Axborot talabi	Asosiy qo'llanish	Mamlakatlar
Cost-plus	Past	Yuqori	Yuqori	O'rtacha	Kapital intensiv tarmoqlar	AQSh, Hindiston
Price-cap	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori	Raqobatbardosh tarmoqlar	Buyuk Britaniya, Avstraliya
Revenue-cap	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori	Yuqori	Tarmoq infratuzilmasi	Germaniya, Niderlandiya

Investitsion muhit va uzoq muddatli samaradorlik

Sanoat infratuzilmasida investitsiyalar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tartibga solish mexanizmlari uchun alohida muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, kapital sarfining hajmi juda ulkan: ADB [14] ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo rivojlanayotgan mamlakatlarida infratuzilmaga yillik zaruriy investitsiyalar YaIMning 4-8 foizini tashkil etib, haqiqiy infratuzilma holatini maqbul darajaga keltirish uchun yillik zaruriy investitsiyalar va amaliy sarmoyalar o'rtasidagi tafovut 26 milliard dollarga baholangan. Ikkinchidan, infratuzilma aktivlari tarmoqqa va joylashgan hududga xoslanib qoladi (asset specificity), bu esa ularni alternativ foydalanishga muvofiqlashtirib bo'lmagligini anglatadi [9].

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Investitsion samaradorlik nuqtai nazaridan tartibga solish tizimi uchun eng katta xavf «tartibga solish riski» (regulatory risk) hisoblanadi. Ushbu risk investor infratuzilma yaratish uchun qaytarib bo'lmaydigan kapital kiritganidan so'ng tartibga soluvchi organ narxlarni pasaytirish yoki shartlarni o'zgartirish orqali investitsiya rentabelligini kamaytirishi ehtimolidan iborat - bu hodisa «hokimiyat muammosi» (commitment problem) deb ham ataladi [5]. Guasch [5] o'z tadqiqotida konsessiya qayta muzokaralarining 68% hukumat tomonidan, 32% esa operator tomonidan tashabbusi qilinganligini aniqladi va tartibga solish shartnomalari aniq belgilanmagan joyda qayta muzokaralar ehtimoli ikki barobar yuqori bo'lganligini ko'rsatdi.

UNCTAD [11] bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda infratuzilma sohalariga yo'naltirilgan xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar global miqyosda 990 milliard dollarni tashkil etdi, ularning 65 foizi rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keldi. Bu assimetrik taqsimot tartibga solish sifati va investitsiya jalb qilish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi - mustaqil va shaffof tartibga solish muhiti xorijiy investorlar uchun muhim mezon hisoblanadi. G20 [22] sifatli infratuzilma investitsiyalari tamoyillari ham tartibga solish barqarorligini investitsion sifatning asosiy o'lchovi sifatida belgilaydi.

Raqobat siyosati va bozor tuzilishi

Sanoat infratuzilmasi odatda ikkita turli xarakterga ega bo'lgan segmentdan tashkil topadi: tabiiy monopoliya segmenti va raqobatga qodir segment [13]. Elektr energetikasida uzatish tarmoqlari (high-voltage transmission) tabiiy monopoliya xususiyatlariga ega bo'lsa, ishlab chiqarish (generation) va chakana savdo (retail) raqobatga qodir tarmoqlarga tegishli. Tartibga solishning asosiy vazifasi ushbu segmentlarni to'g'ri chegaralash va tabiiy monopoliya segmentiga raqobatchi kompaniyalarning kira olishini ta'minlash - «uchinchi tomonning kirishini ta'minlash» (third-party access, TPA) tamoyili - hisoblanadi [7], [12].

Raqobatli kirishni ta'minlash uchun keng qo'llanilayotgan yondashuv «tarmoq xizmatlarini narxlash» mexanizmidir. Bu mexanizmda monopolist tarmoq operatori o'z raqiblariga tarmoqdan foydalanish uchun bir xil shartlarda kirish imkoniyati berishi shart. Ushbu narxlash uchun keng tarqalgan metodologiya LRAIC (Long Run Average Incremental Cost - uzoq muddatli o'rtacha qo'shimcha xarajat) yoki SARR (Stand-Alone Replacement Rate) asosida belgilanadi [7]. Yevropa Ittifoqida 2003-yildan joriy etilgan Elektr Energiyasi Direktiva [12] raqobatchi kompaniyalarga tarmoqqa kirishni kafolatlovchi qoidalarni Yevropa miqyosida standartlashtirdi.

Baldwin, Cave va Lodge [25] «tartibga soluvchini qo'lga olish» (regulatory capture) muammosini tartibga solish tizimining eng jiddiy institutsional xavfi sifatida ko'rsatdi. Ushbu hodisa tartibga soluvchi organ vaqt o'tishi bilan tartibga solayotgan tarmoq kompaniyalari manfaatlarini aks ettira boshlashi va iste'molchilar manfaatlarini ikkinchi o'ringa surishida ifodalanadi. Philippon [18] AQShdagi empirik ma'lumotlar asosida 2000-2015 yillar oralig'ida bir qator infratuzilma va moliya sohalarida bozor konsentratsiyasining ortib borganligini va bu tendensiya tartibga solish tizimining sanoatdoshlar tomonidan siyosiy ta'sir qilinishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Bunday holatning oldini olish uchun tartibga soluvchi organlarning siyosiy

va tarmoqdan institutsional mustaqilligi muhim bo'lib, WEF [17] Global Raqobatbardoshlik indeksida tartibga solish mustaqilligi ko'rsatkichi mamlakatlar reytingiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Institutsional sifat va tartibga solish barqarorligi

Tartibga solish samaradorligi faqat mexanizm tanlovi bilan belgilanmaydi - uni qabul qilingan mexanizmlarni amalga oshiruvchi institutlarning sifati ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Spiller va Tommasi [23] siyosiy iqtisod nuqtai nazaridan tartibga solish sifatini belgilovchi uchta asosiy institutsional omilni ajratib ko'rsatdi: siyosiy tizimning o'zgartirishi qiyin bo'lgan shartnomaviy va qonunchilik asoslari; mustaqil sud tizimi; va tartibga soluvchi organlarning malakali xodimlarga egaligi. Ushbu omillar mavjud bo'lmagan taqdirda, hatto nazariy jihatdan mukammal tartibga solish mexanizmi amalda samarasiz bo'ladi.

OECD Regulatory Policy Outlook 2022 [1] hisoboti 38 ta OECD a'zo mamlakati bo'yicha tartibga solish sifatini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldi: tartibga solish ta'siri baholash (Regulatory Impact Assessment, RIA) mexanizmlari joriy etilgan mamlakatlarda tartibga solish xarajatlari bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlar o'rtacha 22 foizga past bo'lgan. Ushbu natija tartibga solishning sifatli tahlili va extante baholashning ahamiyatini aniq ko'rsatadi. ITU [19] rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ICT tartibga solish muhitini baholab, mustaqil tartibga soluvchi organlarga ega mamlakatlarda telekommunikatsiya xizmatlariga kirishning 2012-2022 yillar oralig'ida 34 foizga ko'payganligi hamda xizmat narxlarining 18 foizga arzonlaganligini aniqladi.

Tartibga solish barqarorligi infratuzilma sarmoyalari uchun alohida zaruriy shart hisoblanadi. UNECE [20] O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar bo'yicha o'tkazgan tartibga solish muhitini tahlilida tartibga solish qoidalarining tez-tez o'zgarib turishi, hujjatlashtirish talablarining noizchilligi va tarif belgilashning prognoz qilinishi qiyinligi infratuzilma sarmoyalari jalb qilishda asosiy to'siqlar sifatida aniqlandi. Ushbu natijalar ko'p tomonlama tekshirishlar va tizimli monitoring tartibga solish sifatini ta'minlashdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Umuman olganda, beshta mezon kategoriyasi - iqtisodiy samaradorlik, narx mexanizmlari, investitsion muhit, raqobat siyosati va institutsional sifat - birgalikda sanoat infratuzilmasini tartibga solishni kompleks baholash imkonini beruvchi tizimli ramkani tashkil etadi. Bu ramka universal bo'lib, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlaridagi mamlakatlarga tartibga solish siyosatini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda sanoat infratuzilmasini tartibga solishning global iqtisodiy mezonlari beshta asosiy kategoriya - iqtisodiy samaradorlik, narx mexanizmlari, investitsion muhit, raqobat siyosati va institutsional sifat - atrofida tizimlashtirilib, nazariy va empirik jihatdan asoslab berildi. Xalqaro adabiyotlar sharhi va qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, tartibga solish samaradorligi faqat mexanizm tanloviga emas, balki u amalga oshiriladigan institutsional muhitga ham bevosita bog'liq.

Birinchi xulosa: universal, barcha sharoitlar uchun maqbul bo'lgan tartibga solish mexanizmi mavjud emas. Price-cap rivojlangan va institutsional jihatdan puxta mamlakatlarda samarali bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tartibga soluvchi organlarning axborot to'plash va tahlil qilish quvvati yetarli bo'lmagan taqdirda cost-plus mexanizmi ham maqbul boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin. Revenue-cap tarmoq infratuzilmasida kapital investitsiyalarni va samaradorlikni bir vaqtda rag'batlantirish imkoniyati sababli tobora keng qo'llanilmoqda [13]. Shu bois tartibga solish tizimi tanlovi muayyan iqtisodiy bosqich, institutsional quvvat va tarmoqning texnik xususiyatlariga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Ikkinchi xulosa: investitsion muhitning barqarorligi uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Guasch [5] tadqiqoti va UNCTAD [11] ma'lumotlari aniq ko'rsatdiki, tartibga solish qoidalarining prognoz qilinishi va shartnomaviy munosabatlarning huquqiy mustahkamligi infratuzilmaga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Hukumatlar va tartibga soluvchi organlar o'z majburiyatlaridan qaytish xavfini institutsional kafolatlar orqali minimallashtirishlari lozim.

Uchinchi xulosa: tartibga soluvchini «qo'lga olish» riski haqiqiy va oldini olish mumkin bo'lgan muammo hisoblanadi. Baldwin, Cave va Lodge [25] tomonidan tavsiya etilgan mustaqillik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillari nafaqat tartibga solish sifatini oshiradi, balki investor ishonchini mustahkamlab, tarmoqqa kapital jalb qilishga xizmat qiladi. Tartibga soluvchi organlarni siyosiy ta'sirdan saqlash uchun qonunchilik asosida ularning maqomi, vakolatlari va moliyalashtirish tartibi aniq belgilab qo'yilishi kerak.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tartibga solish mexanizmi tanlashda quyidagi ustuvorliklar ko'zda tutilishi tavsiya etiladi:

institutsional quvvati shakllanib ulgurmagan mamlakatlarda bosqichma-bosqich o'tish strategiyasi - dastlab oddiyroq cost-plus mexanizmlari, so'ngra price-cap yoki revenue-cap tizimlariga o'tish - amaliy samara beradi [4];

tarmoqlar bo'yicha tartibga solish mexanizmlari differentsiallashtirilishi lozim, chunki tranzit tarmoqlar uchun revenue-cap, ishlab chiqarish segmentlari uchun esa raqobatli muomalalar ko'proq muvofiq keladi [7];

tartibga solish davriy ko'rib chiqilishi (periodic review) standarti joriy etilishi, ya'ni har 4-5 yilda xarajatlar va samaradorlik ko'rsatkichlari qayta baholanishi zarur [15].

Investitsion muhitni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar: tartibga solish shartlari va tarif belgilash metodologiyasi qonunchilik darajasida mustahkamlanishi va tartibga soluvchi organlarga bir tomonlama o'zgartirilmasligi kafolati berilishi kerak; konsessiya va litsenziya shartnomalari «barqarorlik bandleri» (stabilization clauses) bilan ta'minlanishi tavsiya etiladi; investitsion kafolatlar berilganda tartibga soluvchi organ va hukumatning majburiyatlari aniq chegaralanishi lozim [5], [22].

Institutsional sifatni oshirish bo'yicha tavsiyalar: tartibga soluvchi organlarning moliyaviy va operatsion mustaqilligi qonun bilan kafolatlangan bo'lishi; qaror qabul

qilish jarayoni oshkora bo‘lib, barcha manfaatdor tomonlar fikrlarini bildirishga imkon beruvchi jamoat muhokamasi (public consultation) mexanizmi joriy etilishi; va tartibga soluvchi organlarning malakali kadrlari uchun raqobatbardosh mehnat haqi siyosati amalga oshirilishi zarur. OECD [1] tavsiyalariga muvofiq tartibga solish ta’siri baholash (RIA) mexanizmlari ham joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Kelajak tadqiqotlar uchun istiqbollar: birinchidan, sanoat infratuzilmasini tartibga solish mezonlari bo‘yicha panel ma’lumotlari bazasini yaratish va mezonlar va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi empirik bog‘liqlikni miqdoriy jihatdan baholash; ikkinchidan, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning tartibga solish jarayonlariga ta’sirini o‘rganish, jumladan elektr energetika tarmoqlarida aqlli hisob-kitob tizimlari va iqtisodiy tartibga solish o‘rtasidagi aloqani ko‘rib chiqish [19]; uchinchidan, iqlim o‘zgarishi bilan kurashish (dekarbonizatsiya) siyosatining sanoat infratuzilmasi tartibga solishi bilan qanday uyg‘unlashuvi zarurligini tahlil qilish [11], [21].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD (2022). Regulatory Policy Outlook 2022. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/04e6b3e2-en>
2. Joskow, P.L. (2007). Regulation of Natural Monopoly. In: Polinsky, A.M., Shavell, S. (Eds.), Handbook of Law and Economics, Vol. 2, 1227-1348. Elsevier. [https://doi.org/10.1016/S1574-0730\(07\)02016-6](https://doi.org/10.1016/S1574-0730(07)02016-6)
3. Laffont, J.J., & Tirole, J. (1993). A Theory of Incentives in Procurement and Regulation. MIT Press, Cambridge, MA. <https://mitpress.mit.edu/9780262121743/a-theory-of-incentives-in-procurement-and-regulation/>
4. Estache, A., & Wren-Lewis, L. (2009). Toward a Theory of Regulation for Developing Countries: Following Jean-Jacques Laffont’s Lead. Journal of Economic Literature, 47(3), 729-770. <https://doi.org/10.1257/jel.47.3.729>
5. Guasch, J.L. (2004). Granting and Renegotiating Infrastructure Concessions: Doing It Right. World Bank Institute Development Studies. Washington, DC. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/15024>
6. World Bank (2022). Private Participation in Infrastructure Database. <https://ppi.worldbank.org/en/ppi>
7. Armstrong, M., & Sappington, D.E.M. (2006). Regulation, Competition, and Liberalization. Journal of Economic Literature, 44(2), 325-366. <https://doi.org/10.1257/002205106777645655>
8. Viscusi, W.K., Harrington, J.E., & Sappington, D.E.M. (2018). Economics of Regulation and Antitrust (5th ed.). MIT Press, Cambridge, MA. <https://mitpress.mit.edu/9780262038065/economics-of-regulation-and-antitrust/>
9. Williamson, O.E. (1996). The Mechanisms of Governance. Oxford University Press, New York. <https://global.oup.com/academic/product/the-mechanisms-of-governance-9780195109832>
10. Tirole, J. (2017). Economics for the Common Good. Princeton University Press. <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691175164/economics-for-the-common-good>

11. UNCTAD (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. United Nations, Geneva. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
12. European Commission (2023). Better Regulation: Why and How. https://ec.europa.eu/info/law/law-making-process/planning-and-proposing-law/better-regulation-why-and-how_en
13. Newbery, D.M. (2001). Privatization, Restructuring, and Regulation of Network Utilities. MIT Press, Cambridge, MA. <https://mitpress.mit.edu/9780262640633/privatization-restructuring-and-regulation-of-network-utilities/>
14. ADB (2022). Asian Development Outlook 2022: Mobilizing Taxes for Development. Asian Development Bank, Manila. <https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2022>
15. Sappington, D.E.M. (1994). Designing Incentive Regulation. Review of Industrial Organization, 9(3), 245-272. <https://doi.org/10.1007/BF01024253>
16. Helm, D. (2010). Infrastructure and Infrastructure Finance: The Role of the Government and the Private Sector in the Current World. EIB Papers, 15(2), 8-27. <https://www.eib.org/en/publications/eib-papers-vol-15-no-2-2010>
17. World Economic Forum (2023). Global Competitiveness Report Special Edition 2023. <https://www.weforum.org/publications/global-competitiveness-report-special-edition-2023/>
18. Philippon, T. (2019). The Great Reversal: How America Gave Up on Free Markets. Harvard University Press, Cambridge, MA. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674237544>
19. ITU (2022). Global ICT Regulatory Outlook 2022. International Telecommunication Union, Geneva. https://www.itu.int/pub/D-PREF-BB.REG_OUT01-2022
20. UNECE (2021). Regulatory and Procedural Barriers to Trade in Uzbekistan: Needs Assessment. United Nations Economic Commission for Europe. <https://unece.org/regulatory-and-procedural-barriers-trade-uzbekistan-needs-assessment>
21. IMF (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. International Monetary Fund, Washington, DC. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/10/10/world-economic-outlook-october-2023>
22. G20 (2022). G20 Quality Infrastructure Investment Compendium. <https://www.g20.org/en/topics/infrastructure/>
23. Spiller, P.T., & Tommasi, M. (2008). The Institutions of Regulation: An Application to Public Utilities. In: Ménard, C., Shirley, M.M. (Eds.), Handbook of New Institutional Economics. Springer, Berlin, 515-543. https://doi.org/10.1007/978-3-540-69305-5_17

24. Berg, S.V., & Tschirhart, J. (1988). Natural Monopoly Regulation: Principles and Practice. Cambridge University Press.
<https://doi.org/10.1017/CBO9780511572104>
25. Baldwin, R., Cave, M., & Lodge, M. (2011). Understanding Regulation: Theory, Strategy, and Practice (2nd ed.). Oxford University Press.
<https://global.oup.com/academic/product/understanding-regulation-9780199576081>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**